

Andijon viloyat statistika boshqarmasi



ANDIJON VILOYATIDAGI DEMOGRAFIK HOLAT

(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni. Andijon viloyati doimiy aholisi soni 2018 yil 1 yanvar holatiga 3066,7 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida yil boshiga nisbatan 55,0 ming kishiga yoki 1,8 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1603,1 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 52,3 %), qishloq aholisi soni 1463,6 ming kishini (47,7 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:**2018 yil yanvar-dekabr**


- Aholi soni **55,0 ming kishiga** ko'paydi.
- **Tirik tug'ilganlar** soni **72,2 ming nafarni** tashkil etdi.
- **15,3 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **30,3 mingta nikoh** va **4,1 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Andijon viloyati aholisining umumiy o'sishi (2018 yil yanvar-dekabr oylarida)



Hududiy kesimda doimiy aholi sonining taqsimlanishi

(2019 yil 1 yanvar holatiga, viloyat jami aholisiga nisbatan, %da)



tuman va shaharlar

Andijon viloyat kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Andijon shahrida 434,0 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,2 %ni) va Asaka tumanida 319,2 ming kishini (10,4 %), aksincha eng kam aholi soni Xonobod shahrida 41,7 ming kishini (1,4 %) va Ulug'nor tumanida 58,1 ming kishi (1,9 %) tashkil etdi.

Doimiy aholining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi viloyatda 1,8 %ni tashkil etdi. Tumanlar kesimida aholining eng yugori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Andijon tumanida 2,2 %ga, Shaxrixon tumanida 2,0 %ga, Asaka tumanida 2,0 %ga, aksincha eng kam o'sish sur'ati Andijon shahrida 1,5 %ni, Bo'z tumanida 1,6 %ni tashkil etdi.



Tug'ilish. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 72,2 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 23,8 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 1,2 promillega oshgan (2017 yilning yanvar-sentabr oylarida 22,6 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan keskin o'sishi Jalaquduq tumanida (21,1 promilledan 23,8 promillega) va Shaxrixon tumanida (24,1 promilledan 26,1 promillega), Qo'rg'ontepa tumanida (20,8 promilledan 22,8 promillega) kuzatildi, kamayish holatlari esa aksincha Bo'z tumani (24,0 promilledan 22,9 promillega), Marxamat tumanida (24,6 promilledan 24,0 promillega) kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Andijon viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi

	2017 yil yanvar-dekabr		2018 yil yanvar-dekabr	
	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille
Andijon viloyati	67 368	22,6	72 231	23,8
Andijon sh.	8 937	21,0	9 664	22,4
Xonobod sh.	757	18,5	758	18,3
tumanlar:				
Oltinko'l	3 864	23,0	4 139	24,2
Andijon	5 517	22,2	6 041	23,8
Baliqchi	4 302	22,6	4 463	23,0
Bo'z	1 646	24,0	1 593	22,9

Buloqboshi	2 910	21,4	3 145	22,8
Jalaquduq	3 745	21,1	4 292	23,8
Izboskan	5 243	23,3	5 651	24,6
Ulug'nor	1 237	21,8	1 273	22,1
Qo'rg'ontepa	4 271	20,8	4 773	22,8
Asaka	7 297	23,5	7 757	24,5
Marxamat	4 056	24,6	4 023	24,0
Shaxrihon	6 819	24,1	7 537	26,1
Paxtabod	4 424	24,2	4 579	24,6
Xo'jaobod	2 343	22,4	2 543	24,0

Vafot etganlar. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida 15,4 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 5,1 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan -0,3 promillega kamaygan (2017 yilda 5,4 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan eng ko'p Jalaquduq tumanida (5,7 promilledan 4,9 promillega), Xonobod shaxrida (5,2 promilledan 4,4 promillega) va Paxtaobod tumanida (5,3 promilledan 4,8 promillega) kamaydi.

Andijon viloyati bo'yicha vafot etganlar soni

(yanvar-dekabr)

	2017 yil yanvar-dekabr		2018 yil yanvar-dekabr	
	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille
Andijon viloyati	16 122	5,4	15 365	5,1
Andijon sh.	2 430	5,7	2 301	5,3
Xonobod sh.	211	5,2	180	4,4


tumanlar:				
Oltinko'l	848	5,0	818	4,8
Andijon	1 370	5,5	1 316	5,2
Baliqchi	975	5,1	931	4,8
Bo'z	358	5,2	364	5,2
Buloqboshi	701	5,2	668	4,8
Jalaquduq	1 010	5,7	885	4,9
Izboskan	1 298	5,8	1 218	5,3
Ulug'nor	262	4,6	283	4,9
Qo'rg'ontepa	1 076	5,2	1 015	4,9
Asaka	1 679	5,4	1 601	5,1
Marxamat	884	5,4	895	5,3
Shaxrihon	1 421	5,0	1 403	4,9
Paxtabod	975	5,3	892	4,8
Xo'jaobod	624	6,0	595	5,6

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 65,1 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,2 %i o'sma kasalliklaridan, 4,8 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,9%i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 2,7 %i nafas olish organlari kasalliklaridan, 1,3 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 13,0 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 1043 ta nafarni tashkil etib, ularning 69,5 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 16,7%i nafas olish organlari kasalliklaridan, 5,2 %i tug'ma anomaliyalardan, 1,2 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 0,6%i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari va 6,8%i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi

(jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



Tabiiy o'sish. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 56,8 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 5,1 ming kishiga (2017 yilning yanvar-dekabr oylarida 51,7 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



*Tabiiy o'sishi:
51,7 ming kishi*



Nikoh. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 30,3 mingta nikoh qayd etildi. Andijon viloyati bo'yicha 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 10,0 promilleni tashkil etmoqda.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Izboskan tumanida (124,0 %), Xonobod shahri (119,1 %), va Xo'jaobod (114,7 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Nikohdan ajralishlar. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 4,1 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,4 promilleni tashkil etdi



Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Ulug'nor tumanida (160,5 %), Shaxrixon (150,2 %), Andijon (145,0 %) va Buloqboshi (143,0 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Andijon viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik
yanvar-dekabr

	Tuzilgan nikohlar		Nikohdan ajralishlar	
	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.
Andijon viloyati	28 715	30 338	3 164	4 149
Andijon sh.	3 747	3 983	551	657
Xonobod sh.	282	336	57	74
<i>tumanlar:</i>				
Oltinko'l	1 655	1 844	158	222
Andijon	2 375	2 445	249	361
Baliqch	1 880	1 882	157	214
Bo'z	685	649	75	77
Buloqboshi	1 379	1 352	149	213
Jalaquduq	1 740	1 862	173	246
Izboskan	2 097	2 600	263	368
Ulug'nor	518	563	38	61
Qo'rg'ontepa	1 926	1 939	199	279
Asaka	2 991	3 187	348	432
Marxamat	1 637	1 604	233	245
Shaxrihon	2 817	2 899	213	320
Paxtabod	1 969	2 027	182	237
Xo'jaobod	1 017	1 166	119	143

Migratsiya. 2018 yilning yanvar-dekabr davrida Andijon viloyati bo'yicha ko'chib kelganlar soni 6,6 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 8,5 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus -1,9 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,1 ming kishiga kamaygan.

Aholi migratsiyasi, ming kishi

	2017 yil yanvar-dekabr	2018 yil yanvar-dekabr
Ko'chib kelganlar	6,3	6,6
Ko'chib ketganlar	8,3	8,5
Migratsiya saldosi	-2,0	-1,9

Ko'chib kelganlar: Ko'chib ketganlarning nisbatan yuqori darajasi Andijon tumani (1,8 ming kishi), Andijon shahri (1,4 ming kishi), Asaka (0,6 ming kishi) va Izboskan (0,5 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

Ko'chib ketganlar: Ko'chib ketganlarning nisbatan eng yuqori soni Andijon shahri (2,2 ming kishi), Andijon tumani (1,0 ming kishi), Shaxrixon (0,6 ming kishi), Izboskan (0,5 ming kishi) va Qo'rg'ontepa (0,5 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

Migratsion saldo: Migratsiya saldosingin manfiy yuqori darajasi Andijon shahri (minus 0,8 ming kishi), Shaxrihon (minus 0,5 ming kishi), Jalaquduq tumani (minus 0,4 ming kishi) tumanlarida qayd etildi va aksincha ijobiy yuqori darajasi Andijon (plyus 0,8 ming kishi) va Asaka (plyus 0,1 ming kishi) tumanlarida kuzatildi.